



MAKTABDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Turgunova Muxlisa

Qo'qon davlat universiteti San'atshunoslik va sport fakulteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi 02/24

Turgunovamuxlisaturgunova636@gmail.co

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda tasviriy san'atni o'qitish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Darslarda ijodiy muhit yaratish, individual yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning estetik tafakkurini va badiiy didini shakllantirish bo'yicha ilg'or metodlar yoritiladi. Maqolada, shuningdek, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar asosida zamonaviy san'at ta'limining istiqbollari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, maktab, pedagogika, innovatsion metodlar, o'qitish, muammolar, kreativlik, texnologiyalar, STEAM, didaktika

Abstract: This article analyzes the main challenges encountered in teaching visual art at schools and explores modern pedagogical approaches to overcoming them. It highlights methods such as creating a creative atmosphere, applying individualized learning, using information and communication technologies, and fostering students' aesthetic thinking and artistic taste. The article also presents practical recommendations and examines future prospects for contemporary art education based on advanced experiences and best practices.

Keywords: visual art, school, pedagogy, innovative methods, teaching, challenges, creativity, technologies, STEAM, didactics

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы преподавания изобразительного искусства в школе и современные педагогические подходы к их преодолению. Особое внимание уделяется созданию творческой среды на уроках, индивидуальному подходу, использованию информационно-коммуникационных технологий, развитию эстетического мышления и художественного вкуса у учащихся. Также представлены практические рекомендации и перспективы современного художественного образования на основе передового опыта.

Ключевые слова: изобразительное искусство, школа, педагогика, инновационные методы, преподавание, проблемы, креативность, технологии, STEAM, дидактика





Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida maktabda tasviriy san'at ta'limi yangi ahamiyat kasb etmoqda. Tasviriy san'at o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, estetik tafakkur va badiiy didga, vizual savodxonlik va madaniyatga o'rgatishda muhim vositaga aylangan. Shu bilan birga, maktablarda san'at ta'limi jarayonida bir qator muammolar mavjud. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ushbu muammolarni bartaraf etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Asosiy qism

Tasviriy san'atni o'qitishda uchraydigan muammolar va An'anaviy va sust metodik yondashuvlar. Ko'plab maktablarda darslar an'anaviy, reproduktiv usulda o'tkaziladi, o'quvchi ijodkorligi va individual yondashuv yetarli darajada rivojlantirilmaydi⁵⁸. Darslar ko'proq namunaviy rasm chizishga, texnikaga, qoidalarga bog'lanib qoladi, bu esa o'quvchilarning qiziqishini pasaytiradi. Material-texnik baza va resurslar yetishmasligi. Ko'plab maktablarda zamonaviy rang, grafik vositalar, AKT (axborot-kommunikatsion texnologiyalari) va vizual texnika yetishmaydi. Bu esa darslarni interaktiv va zamonaviy usulda o'tkazishga to'sqinlik qiladi⁵⁹.

O'qituvchilarning malakasi va metodik tayyorgarligi. Ba'zi o'qituvchilarda zamonaviy metodika, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) texnologiyalari, raqamli san'at vositalarini darslarga integratsiya qilish bo'yicha ko'nikmalar yetarli emas.

O'quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini pasayishi. O'quvchilarni darsga jalb qilish, ularning kreativligini rag'batlantirish doim ham oson emas. Jamiyatda san'at sohasining kasbiy istiqbollari kam e'tirof etiladi, ota-onalar tomonidan ham san'atga nisbatan motivatsiya sust bo'lishi mumkin.

O'quv dasturlari va baholash tizimi. Dasturlar ko'pincha nazariy ma'lumot va texnikaga urg'u beradi, ijodkorlik va amaliy tajribani rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan. Baholash mezonlari ham ko'pincha yagona standartga asoslangan⁶⁰.

Zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlar. Ijodiy muhit yaratish va individual yondashuv. Har bir o'quvchining individual qobiliyati, tasavvuri va didi inobatga olinishi kerak. Ijodiy loyihalar, guruhlarda ishlash, vizual eksperimentlar, ochiq havoda (plein air) rasm chizish kabi usullar ijodiy muhitni kuchaytiradi⁶¹. AKT va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Multimedia dasturlari, grafik planshetlar, 3D-modellash, vizual prezentatsiyalar orqali o'quvchilarni raqamli san'at olamiga olib

1. ⁵⁸ Xasanov A., "Tasviriy san'at metodikasi", Toshkent: O'qituvchi, 2020.

2. ⁵⁹ Akramova Z., "Maktabda san'at darslarini innovatsion tashkil etish", Pedagogik

3. ⁶⁰ G'ulomov A., "San'at va zamonaviy ta'lim", Fan va texnologiya, 2021.

4. ⁶¹ G'ulomov A., "San'at va zamonaviy ta'lim", Fan va texnologiya, 2021.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishidir. YouTube, Google Arts & Culture, Artsteps kabi platformalar vositasida virtual muzeylar va ustaxonalar tashkil etish mumkin.

STEAM va interfaol metodlarni tatbiq etish. STEAM konsepsiyasi orqali san'at fanlararo (integratsion) yondashuvda o'tiladi. Masalan, matematika bilan simmetriya, biologiya bilan tabiat manzaralari, informatika bilan digital kollaj va animatsiya yaratish.

Ochiq ko'rgazmalar va ijodiy bellashuvlar. O'quvchilar ishlaridan maktab ko'rgazmalari, onlayn-portfoliolar, san'at festivallari o'tkazish, ijodiy tanlovlar tashkil etish o'quvchilarni motivatsiyalash va natijalarni baholashda samarali vositadir.

Zamonaviy baholash tizimi. Ijodkorlik, g'oya, mehnat, yangi texnika va yondashuvlar baholashda inobatga olinishi zarur. Raqamli portfoliolar, shaxsiy rivojlanish xaritalari yordamida baholash jarayoni yangilanmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytishim mumkinki maktabda tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha muammolar ko'pligiga qaramay, zamonaviy innovatsion metodlar va integratsion yondashuvlar bu sohani yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ijodiy muhit, AKT va STEAM texnologiyalari, yangi baholash tizimlari orqali har bir o'quvchida ijodkorlik, badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda san'at ta'limi o'zining jamiyat hayotidagi ahamiyati va imkoniyatlari bilan dolzarbligini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanov A., "Tasviriy san'at metodikasi", Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Akramova Z., "Maktabda san'at darslarini innovatsion tashkil etish", Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2022, №3.
3. G'ulomov A., "San'at va zamonaviy ta'lim", Fan va texnologiya, 2021.
4. Begmatov D., "O'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda tasviriy san'at darslarining o'rni", O'zbekiston pedagogika jurnali, 2019, №5.
5. Arnason H. H., "History of Modern Art", Pearson, 2012.
6. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.
7. Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. qizi "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.
8. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.

9. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.

10. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

